

---

## PENSIYA VA NAFAQA OLUVCHILAR UCHUN YANADA QULAYLIKLAR YARATILDI!

Prezidentimizning tegishli Qarori bilan 2022 yil 1 maydan boshlab barcha pensionerlarimiz uchun yanada ko'proq imkoniyatlar yaratildi:

□ Pensiya vanafaqa to'lovlari uchun zarur mablag'lar har oyning 5-sanasigacha moliyalashtiriladi;

□ Pensiya va nafaqalar hamda moddiy yordam pullarini naqd pulda yetkazib berish xizmatlari uchun 1 foizmiqdorda AT "Xalqbanki"ga xizmat haqit o'lab beriladi;

□ Sayyor kassalar mahalla fuqarolar yig'inlariga borgan holda pensiya vanafaqa oluvchilarning kartalaridagi mablag'larini ularning xohishlariga ko'ra naqd pulga almashtirib beradi;

□ Pensiya vanafaqalarni bank kartalari orqali oluvchilarga har oylik pensiya va nafaqa pulining 1 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov joriy qilinadi.

Ya'ni pensionerlar kartasiga 1% ortiqcha pul kelib tushadi.

Agarda pensiya vanafaqa mablag'lari bank kartalari orqali olinsa va kartadagi mablag' naqdlashtirilmasdan foydalanilsa, ushbu 1 foiz miqdorida beriladigan qo'shimcha mablag' pensioner ixtiyorida qoldirilishi nazarda tutilgan.

Mabodo pensioner mablag'ini bankomatdan naqdlashtirib olaman desa, o'sha qo'shib berilgan 1% yechib olinadi. Ya'ni bunda pensionerning ba'zaviy pensiya mablag'iga umuman tegilmaydi.

**Byudjetdan tashqari pensiya jamgarmasi Farg'ona tuman bo'limi boshlig'i U.O.Yuldashev**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2022-04-30 22:00:55